

Oilada o‘smirlik davridagi farzand bilan o‘zaro munosabatlarning psixologik jihatlarini

Safarova Dilnoza Kuchkarovna UMFT “Gumanitar fanlar” kafedrasini katta o‘qituvchisi

safarova_dilnaza@mail.ru

Annotatsiya: Maqola oilada o‘smirlik davridagi farzand bilan o‘zaro munosabatlarning psixologik jihatlarini mavzusida bo‘lib, unda oilada bolalarni tarbiyalash masalasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: oila, farzand, shaxs, ma‘suliyat, tarbiya

Аннотация: Статья посвящена теме психологических аспектов взаимодействия с ребенком в период подросткового возраста в семье, в которой специально затронут вопрос воспитания детей в семье.

Ключевые слова: семья, ребенок, человек, ответственность, воспитание

Annotation: The article is on the topic of psychological aspects of interaction with a child during the period of adolescence in the family, in which the issue of raising children in the family was specially addressed.

Keywords: family, child, person, responsibility, upbringing

Oila jamiyatning negizi, har bir shaxsning ongida, xatti-harakatida bolaligidan boshlab shakllanadigan barcha fazilatlarini, niyatlari, maslaklari amalga oshadigan maskan hamdir. Farzand - oila tayanchi. Oila esa nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati. Shuningdek bashariyatning tirikligi, uzluksizligi - oiladandir. Bordi-yu jamiyatda oila tuzuk bo‘lmasa, tarbiyaga ham e‘tibor berilmasa, qancha buyuk bo‘lsa ham bunday millat dunyoda uzoq yashay olmaydi. Abdurauf Fitrat oila taqdirida yurt va xalq baxtini xudbinlik bilan ko‘radi. Shu mulohazalardan kelib chiqib u: “Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shunchalik kuchli va tartibli bo‘ladi” - deb ta‘kidlaydi. Barkamol inson haqida, uning mehnati va turmushi, ma‘naviy taraqqiyoti haqida g‘amxo‘rlik jamiyatimizning asosiy maqsadidir. Inson o‘ziga xos xususiyatlari uning mehnatga, ma‘naviy, g‘oyaviy va madaniy boyliklarga munosabatining asoslari oilada shakllanadi. Hozirgi kunda oilada bolalarni tarbiyalash masalasiga har qachongidan ko‘ra katta ahamiyat berilmoqda. Tarbiya jarayonida u xoh oilada bo‘lsin, xoh maktabda bo‘lsin bolaning psixologiya xususiyatlarini hisobga olmaslik kelajakda eng katta, tuzatib bo‘lmas xatoliklarga yo‘l qo‘yish demakdir.

Oila - bu bir kunlik, bir yillik emas, balki bir umrlik makondirki, bu makonda har kun, har soatda qanchadan-qancha voqea-hodisalar, yangidan-yangi tashvishu

quvonchlar sodir bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev buyuk allomalarning ushbu fikrini keltirib o‘tdilar: “Bola ota-ona qo‘lida bir-omonatdir”. Bolalarimiz, ularning taqdiri, kelajagi, haqiqatan ham, juda omonat ekanini bugungi xayot har tomonlama isbotlamoqda. Agar farzandimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilmu hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonotni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas. Darhaqiqat, farzandga beriladigan tarbiya dastlab oila muhitida bajariladigan eng asosiy vazifadir. Farzandlar o‘z uylarida kuzatgan ma‘naviy muhitdan nusxa oladilar. Oiladagi ma‘naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil yoki xudbin va bag‘ritosh bo‘lib o‘sadi. Shu urinda, bugungi kunda o‘zbek oilalarda mavjud bo‘lgan tarbiyadagi nuqsonlardan biri haqida aytishni lozim topdik. Ya‘ni ota-onalarning rad etish, ta‘qiqlash, ruhsat bermaslik asosidagi tarbiya usuli bunda bolalarning xohish-istagi, o‘y-xayollari, orzu va intilishlari inobatga olinmaydi, natijada ularning erki cheklanadi. Bunday tarbiya usulida bolalar o‘z fikr-mulohazalarini ochiq bayon etolmaydigan, mustaqil qaror chiqara olmaydigan, muayyan vazifalarga o‘z nuqtayi nazarini bildira olmaydigan jur‘atsiz bo‘lib ul‘ayadi. Jur‘atsiz, tobe tortinchoq bolada faollik va o‘z-o‘ziga ishonch xhissi yetishmaydi. Bunday bolalar butun umr davomida birovlariga tobe bo‘lib yashaydi. Ular birovlarining bo‘lar-bo‘lmas gaplariga ishonadilar.

Oila - har bir shaxsda bolaligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu istaklar, qadriyatlar kamol topadigan, ming yillar davomida shakllangan o‘zbek xalqining ma‘naviy merosi ravnaqini ta‘minlovchi tarbiya maskanidir. Farzand tarbiyasi mas‘ullikni talab etadi. Milliy mas‘uliyat insonning har bir amali, faoliyatini to‘lik tasavvur qilgan holda, uning o‘zi va millati uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir. Bola shaxsini shakllantirishida, unga tarbiya berishda ota-onadagi mavjud psixologik va pedagogik bilimlar, ularning oiladagi va ijtimoiy xayotdagi obro‘si juda muhim hisoblanadi. Oilada ota-onaning, shu oiladagi kattalarning yurish-turishidan tortib, so‘z madaniya-ti, kiyinish, insonlar bilan muomalasi, xatto atrof-muhitga munosabati va shu singari oddiy bo‘lib ko‘rinadigan holatlar ham bola tarbiyasiga katta ta‘sir qiladi. Shu bois, bola yonida bo‘lar-bo‘lmas gaplarni aytish ularning ruhiyatiga ta‘sir etib, tarbiyasining buzulishiga olib keladi. Afsuski yosh bolalar oldida ayrim ota-onalar yomon so‘zlarni o‘ylamay-netmay gapiradi. Shaxsni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalab, voyaga yetkazishning eng asosiy bo‘g‘ini bu oiladir. To‘g‘ri shakllangan inson jamiyatga to‘g‘ri va adolatli munosabatda bo‘ladi, o‘z xalqining milliy qadriyatlarini ham e‘zozlaydi va o‘zligini hech qachon unutmaydi.

Oila tarbiya tizimidagi shunday bo'g'inki, butun jamiyatning, millatning bugungi kuni va kelajagi uning qanday tashkil etilishi, oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitga bog'liq. Bugungi kunda mamalakatimizda oilalarni mustahkamlash, yosh avlodni jismonan va ruhan sog'lom qilib tarbiyalash, jamiyat ravnaq topishida oilaning tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalariga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ko'lamini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oiladagi ota-ona va farzand munosabatlarining samarali kechishi ota-onalarning bu rollarda qanchalik muvofiqliklariga hamda farzandining xayotga nisbatan munosabati xususiyatlariga e'tibor berishlari lozim. Shaxslararo munosabatlarning bir ko'rinishi sifatida ota-ona va farzandlar orasida amalga oshadigan munosabatlarni o'rganish va tadqiq etish masalasi juda muhimdir. O'zbek oilasi sharoitida ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarning o'ziga xos ijobiy tomonlari kuzatilgani bilan ayrim tomonlari borki, bu o'z navbatida, bola xarakterining shakllanishida namoyon bo'ladi.

Bugun yoshlarimiz baxtli, chunki ularning ota-onalari boshida, ular uchun kerakli narsalarni ortig'i bilan olib bermoqda. To'g'ri, bu ishlar ota-onaning farzand oldidagi asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Afsuski, ba'zi ota-onalar o'zlarining vazifalari faqat shu deb o'ylashadi. Holbuki, bulardan ham muhim, bulardan ham qiyin va bulardan ham asosiy vazifa ham bor, bu farzandning ma'naviy-axloqiy tarbiyasidir. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) bunday marhamat qiladilar: "Ota-ona farzandiga yaxshi xulqdan ham ortiqroq narsa bera olmaydi". Demak, ota-ona farzandiga beradigan eng yaxshi narsasi qimmatbaho kiyim, yaxshi taom yoki ajoyib sovg'a emas, balki go'zal xulq va yaxshi tarbiyasi ekan. Chunki kiyim, taom yoki sovg'a bolaga ma'lum vaqt foyda beradi, vaqt o'tishi bilan esa eskiradi. Go'zal xulq, yaxshi tarbiya esa farzandga umri davomida foyda beradi. Nafaqat umri davomida, balki vafotidan keyin oxiratda ham naf keltiradi. Zero, hadisi sharifda: "Banda go'zal xulqi ila kechalari ibodatda qoim bo'luvchi hamda kunduzi ro'za tutuvchining darajasi – savobiga erishadi", deyilgan. Hadis sharifda "Farzanding yo jannating yoki do'zaxingdir", deb aytilgan. Agar ota-ona farzandini yaxshi xulqli, odobli va imon-e'tiqodli qilib tarbiyalasa, bunday farzand qiyomat kunida o'zi bilan ota-onasini ham jannatga yetaklaydi. Shunday ekan, har bir ota-ona farzandlarining tarbiyasiga ko'proq e'tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan ta'lim berishi, ularni doimo nazorat qilib borishi, yomonlarga yaqin yo'latmasligi lozim ekan. Ana shunda ular ota-onasi va el-yurtiga xizmat qiladigan, ularga ikki dunyoda obro' olib keladigan, yuzlarini yorug' va boshlarini yuqori qiladigan farzandlar bo'lib katta bo'lishadi.

O'smirlik balog'at yoshida salomatlik va farovonlik poydevorini yaratish uchun hayotdagi asosiy davr hisoblanadi. O'quvchilar, ota-onalar va maktab

xodimlarining maktab hayotidagi tajribasining me'yorlari, maqsadlari, qadriyatlari, shaxslararo munosabatlari, o'qitish va o'qish amaliyoti hamda tashkiliy tuzilmalarni aks ettiruvchi namunasi sifatida ta'riflangan maktab iqlimi o'smirlar salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jismoniy va hissiy xavfsizlikning yetishmasligi, o'qituvchilar va o'quvchilar, hamda tengdoshlar o'rtasidagi yomon munosabatlar, o'qituvchilar va ota-onalarni o'quvchilarning o'qish natijalariga bosim o'tkazishi, bulling (zo'ravonlik) holatlari, maktab bilan bog'liqlikning yetishmasligi va izolyatsiya hissi maktabdagi o'smirlar uchun kunlik stress omillaridan biridir. Maktab dasturi va baholash turlari ham o'smirning hissiy farovonligiga ta'sir qilishi mumkin. Noqulay maktab iqlimi o'qishdagi ko'rsatkichlarning pasayishi, ruhiy kasalliklarning ko'payishi, zo'ravonlikning o'sishi, jinsiy va reproduktiv salomatlik uchun xavfli xatti-harakatlar, tamaki iste'moli va muammoli xatti-harakatlarning yuqori darajasi bilan bog'liq. Shu bilan birga, qulay maktab muhitini yaratish ruhiy salomatlik va ta'lim natijalarini yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, o'quvchilar, maktab xodimlari va umuman jamiyat manfaati uchun sog'lom xatti-harakatlarga ta'sir qiladi.

O'zbek oilasi sharoitida ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarning o'ziga xos ijobiy tomonlari kuzatilgani bilan ayrim tomonlari borki, bu o'z navbatida bola xarakterining shakllanishida namoyon bo'ladi. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, quyidagi xulosalarni keltirishni o'rinli deb hisoblaymiz:

- Ota-onalar o'z rollariga muvofiqlik xususiyatlarini namoyon eta olar ekanlar, bu borada ular da asosan, talabchanlik, ba'zan yumshoqlik ko'rsatish va g'amxo'rlik xususiyatlarini ko'rsata olish va namoyon etishi kuzatildi.

- Oilada bolaga nisbatan munosabatda onalarning otalarga nisbatan ko'proq vaqt ajratishi kuzatildi.

- Bolaga va uning xulqiga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish va oqilona ish tutish jihatidan esa otalar onalarga nisbatan ustun ekanliklari namoyon bo'ldi.

- Bolaning turli jihatdan rivojlantirish ishiga onalar ko'proq imkoniyat yaratib beradilar. Onalarning o'z bolalarini kuzatish imkoniyatlari yuqori ekanligi namoyon bo'ldi.

- Bolaga munosabatda otalar ko'proq ravishda uni teng deb qarashlari, do'stona tushunishlari aniqlandi.

- Hozirgi ota-onalarning o'z rollariga muvofiq ekanliklari ularning o'z bolalari bilan munosabat o'rnatishda juda yaxshi, o'rtacha darajadagi holatlarida ko'rindi.

- Farzandlar ota-ona oilasidagi o'zaro munosabat va vaziyatlarga befarq emasliklari namoyon bo'ldi. Bu esa o'z navbatida farzandlarning ota-onasi oilasi

bilan munosabati xususiyatlarida salbiy emas, balki ijobiy tendensiyalar ustunligini ko'rsatadi.

O'zbek oilasida ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini aniqlash, xulosalar hamda olingan natijalar asosida ushbu tavsiyalarni berishni zarur deb hisoblaymiz:

- Ota-onalarga ota-onalik mas'uliyati va baxti nasib etgach, farzandlari tarbiyasiga, uning kelgusida qanday inson bo'lishiga bevosita javobgar ekanligini doimo tushuntirish;

- Ota-onalar o'z farzandlari oldida yaxshi insoniy munosabatlarni, jumladan namunalimuomalani namoyish etishlarini targ'ib qilish;

- Mahallada ota-ona va farzandlar ishtirokida shaxslararo munosabatlarga doir suhbatlar uyushtirish;

- Ota-onalarning bola tarbiyasida psixologik savodxonlik masalalariga e'tibor berish, joylarda psixologik maslahatxonalar tashkil etish.

Demak, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabat bola shaxsi shakllanishidagi yetakchi omillardandir. Jamiyatimizda olib borilayotgan barcha o'zgarish va ma'naviy islohotlar jamiyatda, barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir, bu esa o'z navbatida yaxshi fuqaro, jamiyatning barkamol a'zosini tarbiyalash hamdir. Shuning uchun biz oila muhitida ota-ona va farzand orasidagi psixologik munosabatlarni to'g'ri tashkil etishga oila a'zolarini tayyorlasak, bundan hayotimizda yuz berishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar, nizoli vaziyatlarni oldini olgan bo'lamiz.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar hamda elektron ta'lim resurslari ro'yxati

1. G.Mirzarahimova., "Oilada ota-ona va farzand munosabatlarning psixologik muammolari" maqola, Ozbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

2. Yuldashev M. Oiladagi ruhiy muhit va uning tarbiyaga ta'siri. Toshkent, 2004, 99 bet

3. Akromova F.A., Abdullayeva R.M. Shark mutafakkirlarining oila xususidagi karashlari. Toshkent, 2002, 25 bet

4. Oila psixologiyasi. Shoumarov taxriri ostida. Toshkent, 2009, 338 bet

5. Hayot kitobi: Yosh oilalar uchun ensiklopedik kullanma. Toshkent, Sharq, 2011, 272 bet

6. Шарипова, Д. Д., & Камилова, Н. Г. (2020). Развитие действенной мотивации к здоровому образу жизни у неорганизованной молодежи как эффективный путь становления личности. Ин Современная реальность в социально-психологическом контексте-2020 (пп. 71-74).

7. www.psychology-online.net/docs/practicum1.html